



*Ulug'bek MUSURMANOV,*  
*Guliston davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi*  
*E-mail: uamirkulovich@gmail.com*

*M.Niyazov taqrizi asosida*

### MASOFAVIY TA'LIM VA GIBRID O'QUV JARAYONI ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMLARINING MUHIM OMILI

Annotatsiya

Masofaviy ta'lim va gibridd o'quv jarayoni zamonaviy ta'lim tizimining rivojlanishida muhim o'rin tutmoqda. So'nggi yillarda, ayniqsa pandemiy davrida, ta'lim jarayonining raqamlashtirilishi va onlayn shakllarga o'tishi sezilarli darajada jadallashdi. Natijada masofaviy ta'lim hamda gibridd o'qitish modellari keng joriy etila boshlandi. Bugungi kunda ushbu ikki yondashuv nafaqat global inqiroz sharoitiga moslashuv vositasi, balki ta'limning zamonaviy, qulay va samarali shakllari sifatida ham e'tirof etilmoqda. Ular o'quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashish, ta'limga keng qamrovli kirishni ta'minlash va o'quv jarayoni sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Kelgusida masofaviy va gibridd ta'limning ta'lim tizimidagi o'rni yanada mustahkamlanishi kutilmoqda.

**Kalit so'zlar:** masofaviy ta'lim, gibridd ta'lim, raqamli texnologiyalar, onlayn ta'lim, ta'lim sifati, zamonaviy ta'lim, innovatsion yondashuv.

### DISTANCE LEARNING AND HYBRID EDUCATION AS KEY FACTORS OF MODERN EDUCATION SYSTEMS

Annotation

Distance learning and hybrid education play a significant role in the development of modern education systems. In recent years, especially during the pandemic period, the digitalization of education and the transition to online formats have accelerated considerably. As a result, distance learning and hybrid teaching models have been widely implemented. Today, these approaches are recognized not only as a response to global challenges but also as effective and modern forms of education. They contribute to meeting learners' individual needs, ensuring broader access to education, and improving the overall quality of the educational process. In the future, the importance and role of distance and hybrid education are expected to increase further.

**Keywords:** distance learning, hybrid education, digital technologies, online learning, education quality, modern education, innovative approaches.

### ДИСТАНЦИОННОЕ ОБУЧЕНИЕ И ГИБРИДНЫЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЙ ПРОЦЕСС КАК ВАЖНЫЕ ФАКТОРЫ СОВРЕМЕННОЙ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

Дистанционное обучение и гибридный образовательный процесс играют важную роль в развитии современной системы образования. В последние годы, особенно в период пандемии, значительно ускорились процессы цифровизации образования и перехода к онлайн-форматам обучения. В результате широкое распространение получили модели дистанционного и гибридного обучения. В настоящее время данные подходы рассматриваются не только как ответ на глобальные вызовы, но и как эффективные и современные формы организации образовательного процесса. Они способствуют учёту индивидуальных потребностей обучающихся, расширению доступа к образованию и повышению его качества. В будущем ожидается дальнейшее усиление роли дистанционного и гибридного обучения в системе образования.

**Ключевые слова:** дистанционное обучение, гибридное обучение, цифровые технологии, онлайн-образование, качество образования, современное образование, инновационные подходы.

Masofaviy ta'lim – o'quv jarayonining to'liq yoki asosan internet orqali olib borilishi bo'lib, unda o'quvchilar va o'qituvchilar jismonan bir joyda bo'lishi shart emas. Bu shakl keng geografik hududlarga ta'limni yetkazish, vaqt va joy cheklovlarini bartaraf etish imkonini beradi. Masofaviy ta'lim o'quvchilarga turli platformalar va vositalar orqali bilim olish imkonini yaratadi: video darslar, onlayn imtihonlar, interaktiv vazifalar va forumlar yordamida o'zaro aloqada bo'lish. Shu bilan birga, o'quvchilarning mustaqil o'qish ko'nikmalari rivojlanadi, ularning o'qishga bo'lgan motivatsiyasi va intilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Gibridd o'quv jarayoni masofaviy va an'anaviy darslash shakllarini birlashtirib, o'quvchilarga eng mos va samarali ta'limni taqdim etadi. Bu modelda o'quvchilar ba'zi darslarni yuzma-yuz, ba'zilarini esa onlayn tarzda o'rganadilar. Gibridd ta'lim o'quvchilarga moslashuvchanlik va shaxsiylashtirilgan o'quv tajribasini yaratishda yordam beradi. Shu bilan birga, o'qituvchilarga o'quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda darslarni tashkil qilish imkonini beradi. Gibridd model o'quv jarayonining interaktivligini va hamkorlik darajasini oshiradi, shu tariqa o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi aloqani kuchaytiradi[1].

Masofaviy va gibridd ta'limning kelajagi texnologik taraqqiyot bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, virtual va kengaytirilgan haqiqat, shuningdek, o'quv jarayonlarini avtomatlashtirish vositalari ta'limning sifatini oshirishda katta rol o'ynaydi. Ushbu texnologiyalar yordamida o'quvchilar uchun maxsus, individual o'quv rejalarini yaratish, ularning o'rganish darajasini aniqlash va ularga yordam berish imkoniyati kengayadi. Shu sababli, ta'lim tizimlari ushbu texnologiyalarni faol joriy etib borishi kutilmoqda. Masofaviy va gibridd ta'lim shuningdek, ta'lim tizimlarida imkoniyati cheklangan shaxslar, uzoq hududlarda yashovchilar yoki ish jadvaliga moslashishi kerak bo'lgan o'quvchilar uchun ham katta imkoniyatlar ochmoqda. Bu ta'lim shakllari yordamida o'rganish doirasi kengayadi va hamma uchun teng imkoniyatlar ta'minlanadi. Kelajakda bunday ta'lim shakllari ko'proq inkluziv va adolatli ta'lim tizimini yaratuvchi asosiy g'oyalar sifatida rivojlanadi[2].

O'quv jarayonlarining avtomatlashtirilishi va onlayn platformalarning yanada takomillashuvi o'qituvchilarning ish yukini kamaytiruvchi, baholash tizimlarini adolatli va shaffof qiluvchi omil bo'ladi. Shu bilan birga, o'quvchilarning mustaqil

faoliyatini rag'batlantiruvchi, ularni o'zlashtirish jarayonida qo'llab-quvvatlovchi resurslar soni ortadi. Zero, kelajakda ta'lim tizimlari o'quv jarayonini doimiy ravishda yangilab boradigan, dinamik va interaktiv tizimlar bo'lib qoladi. Masofaviy va gibridd ta'limning kelajagi shuningdek, ta'lim mazmuni va metodikasining ham o'zgarishini talab qiladi. An'anaviy faktologik bilim berishdan ko'ra, malaka va ko'nikmalarni rivojlantirishga ko'proq e'tibor qaratiladi. Muammolarni hal qilish, tanqidiy fikrlash, kreativ yondashuv va jamoaviy ishlash ko'nikmalari ta'limning markaziy yo'nalishiga aylanadi. Shuningdek, o'quv jarayonlarida interfaol usullar, loyihaviy faoliyat va amaliy mashg'ulotlar ko'payadi. Masofaviy va gibridd ta'lim bu yo'nalishlarda ham yuqori samaradorlikka erishishga yordam beradi[3].

Kelajakda masofaviy va gibridd ta'lim platformalari global darajada o'zaro bog'langan, bir-birini to'ldiruvchi tizimlarga aylanadi. O'quvchilar dunyoning turli mamlakatlarida joylashgan kurslar va dasturlarga ulana oladi, turli tillarda o'quv materiallarini o'zlashtiradi va xalqaro sertifikatlar olish imkoniga ega bo'ladi. Bu esa ta'lim sohasining globallashtirish jarayonlarini tezlashtiradi va dunyo miqyosida bilim almashinishni yanada samarali qiladi. Masofaviy va gibridd ta'limning keng tarqalishi natijasida ta'lim xizmatlarining sifatini nazorat qilish va standartlashtirish masalalari ham dolzarb bo'lib qoladi. Ta'lim sifatini ta'minlash uchun milliy va xalqaro standartlar ishlab chiqiladi, akkreditatsiya tizimlari yanada takomillashadi. Shuningdek, o'quv jarayonlarini baholashda adolatli va ob'ektiv usullar joriy etilishi ta'minlanadi. Bu jarayonlar ta'limning ishonchligini va obro'sini oshirishga xizmat qiladi[4].

Masofaviy va gibridd ta'limda inson omili, ya'ni o'qituvchi va o'quvchining roli yangi kontekstda qayta ko'rib chiqiladi. O'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki murabbiy, motivator, va texnologik yordamchi sifatida faoliyat yuritadi. U o'quv jarayonini tashkil qiluvchi va shaxsiylashtirilgan yondashuvni ta'minlovchi muhim shaxsga aylanadi. O'quvchi esa mustaqil o'rganishga, mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga tayyor bo'lishi kerak. Bu esa ta'lim muhitining o'zaro hamkorlikka asoslangan yangi shaklini yaratadi. Ta'lim tizimi hamdo'stlari – hukumatlar, ta'lim muassasalari, texnologik kompaniyalar va jamiyat organlari o'rtasidagi hamkorlik yanada kuchayadi. Ular ta'limning yangi shakllarini rivojlantirish, unga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, va ta'lim jarayonlarini monitoring qilishda birgalikda harakat qiladilar. Bu hamkorlik ta'limni sifatli va samarali tashkil etishda muhim omil hisoblanadi[5].

Masofaviy ta'limda yuzaga keladigan asosiy muammolar texnik imkoniyatlarning cheklanganligi, o'qituvchilar va o'quvchilarning yetarli malaka va ko'nikmalarga ega emasligi, kommunikatsiya va ijtimoiy o'zaro ta'sirlarning yetishmasligi, ta'lim mazmunining mos kelmasligi hamda baholash muammolaridir. Texnik imkoniyatlardagi cheklavlar, ayniqsa, qishloq joylarda internet aloqasi va zamonaviy qurilmalar yetishmasligi ta'lim olishga to'sqinlik qiladi. Ushbu muammoni hal qilish uchun infratuzilmani yaxshilash, internetni kengaytirish va raqamli texnik vositalarni arzonlashtirish zarur. O'qituvchilar va o'quvchilarning masofaviy ta'limga mos ko'nikmalarga ega emasligi ta'lim jarayonining samaradorligini pasaytiradi. Bu muammoni bartaraf etish uchun o'qituvchilarga onlayn ta'lim bo'yicha maxsus treninglar tashkil etish, o'quvchilarga texnologiyalarni o'zlashtirish bo'yicha yordam berish kerak. Masofaviy ta'limda yuzaga keladigan yana bir muammo – yuzmayuz muloqotning yo'qligi sababli o'quvchilarning motivatsiyasi va o'zaro aloqasi sustlashadi. Bu muammoni hal etish uchun onlayn forumlar, videokonferensiyalar va interaktiv darslar tashkil etilishi muhimdir. Masofaviy ta'lim tizimida ta'lim mazmunining yetarli darajada moslashtirilmaganligi hamda puxta ishlab chiqilgan baholash mexanizmlarining mavjud emasligi ta'lim sifatiga sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. An'anaviy ta'lim shakllariga mo'ljallangan o'quv materiallarini to'g'ridan-to'g'ri onlayn muhitga ko'chirish ko'plab didaktik muammolarni keltirib chiqaradi. Shu sababli o'quv materiallarini masofaviy ta'lim talablariga mos ravishda qayta ishlab chiqish, ularni interaktiv, multimediaviy va amaliy mashg'ulotlar bilan boyitish zarur

hisoblanadi. Bunday yondashuv o'quvchilarning bilimni chuqurroq o'zlashtirishiga va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, baholash tizimining mukammal yo'lga qo'yilmaganligi ham muhim muammolardan biridir. Masofaviy ta'lim sharoitida bilimlarni adolatli, shaffof va obyektiv baholash mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, test sinovlari bilan bir qatorda loyihaviy ishlash, portfoliolar, muammoli vazifalar hamda formatif (jarayon davomida) baholash usullaridan keng foydalanish tavsiya etiladi. Bu esa o'quvchilarning bilim darajasini yanada to'liq va haqqoniy aniqlash imkonini beradi.

Masofaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalari va ichki motivatsiyasining pasayishi ham jiddiy muammolardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. O'quvchilar bilan bevosita muloqotning cheklanganligi, nazoratning nisbatan sustligi ularning o'qishga bo'lgan qiziqishini kamaytirishi mumkin. Ushbu muammoni bartaraf etish uchun individual yondashuvni kuchaytirish, o'quvchilarning qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda differensial ta'limni tashkil etish, shuningdek, rag'batlantirishning zamonaviy usullarini (gamifikatsiya, reyting tizimi, mukofotlash mexanizmlari) joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xavfsizlik masalasi ham masofaviy ta'lim tizimida alohida e'tibor talab qiladigan yo'nalishlardan biridir. O'quvchilarning shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish, axborot xavfsizligini ta'minlash hamda kiberxavflarning oldini olish uchun zamonaviy himoya vositalarini joriy etish zarur. Bunda ma'lumotlarni shifrlash, autentifikatsiya tizimlarini takomillashtirish, xavfsiz platformalardan foydalanish va foydalanuvchilarni kiberxavfsizlik bo'yicha xabardor qilish muhim o'rin tutadi.

Shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tez sur'atlarda rivojlanishi natijasida mavjud texnologik vositalar va platformalar tez eskirishi kuzatiladi. Bu esa ta'lim jarayonining uzluksizligi va samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli ta'lim platformalarini muntazam yangilab borish, texnik qo'llab-quvvatlash xizmatlarini rivojlantirish hamda o'qituvchilar va o'quvchilar uchun doimiy trening va malaka oshirish dasturlarini tashkil etish zarur.

Yuqorida keltirilgan muammolarni kompleks yondashuv asosida hal etish orqali masofaviy ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, uning samaradorligini oshirish va keng qamrovli, sifatli ta'lim modelini shakllantirish mumkin. Bu esa o'z navbatida zamonaviy ta'lim tizimining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

**Xulosalar.** Natijada, masofaviy va gibridd ta'lim shakllari yaqin istiqbolda ta'lim tizimining ustuvor va strategik yo'nalishlaridan biriga aylanishi kutilmoqda. Ushbu yondashuvlar zamonaviy ta'lim paradigmasining ajralmas qismi sifatida shakllanib, o'quv jarayonining samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Masofaviy va gibridd ta'lim modellari o'quvchilarga vaqt va makonga bog'liq bo'lmagan holda bilim olish imkoniyatini yaratib, ta'limning moslashuvchanligini ta'minlaydi. Shu bilan birga, ularda individual ta'lim trayektoriyasini shakllantirish, o'quvchilarning ehtiyoj va qobiliyatlariga mos ravishda bilim berish imkonini kengaytiradi.

Mazkur ta'lim shakllari interaktiv texnologiyalar, raqamli platformalar va innovatsion pedagogik yondashuvlar orqali boyitilib, o'quv muhitini yanada samarali va jozibador qiladi. Virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar, sun'iy intellekt asosidagi o'quv tizimlari hamda adaptiv ta'lim texnologiyalari o'quvchilarning bilimni chuqurroq o'zlashtirishiga xizmat qiladi. Bu esa ta'lim jarayonini nafaqat axborot yetkazish vositasi, balki amaliy ko'nikmalarni shakllantirish maydoniga aylantiradi.

Shuningdek, masofaviy va gibridd ta'lim tizimlari ta'limda teng imkoniyatlarni kengaytirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ular geografik, ijtimoiy yoki iqtisodiy cheklavlardan qat'i nazar, keng qatlamdagi aholi uchun sifatli ta'limdan foydalanish imkonini yaratadi. Bu esa ta'limning inkluzivligini oshiradi va ijtimoiy tenglikni ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, global raqamli platformalar orqali xalqaro miqyosda bilim almashish, tajriba o'rganish va akademik hamkorlikni rivojlantirish imkoniyatlari kengayadi.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida ta'lim tizimi tubdan transformatsiyalanmoqda. Sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (Big Data), bulutli texnologiyalar va boshqa innovatsiyalar ta'lim jarayonini yanada takomillashtirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Natijada ta'lim bir pog'ona yuqoriga ko'tarilib, kelajak avlodni zamonaviy bilimlar, raqamli kompetensiyalar va tanqidiy fikrlash ko'nikmalari bilan ta'minlash imkonini beradi.

Biroq ushbu jarayon doimiy rivojlanish va takomillashuvni talab qiladi. Ta'lim tizimi yangi texnologiyalar va innovatsiyalarga tez moslasha olishi, o'qituvchilarning malakasini muntazam

oshib borish, pedagogik yondashuvlarni yangilash hamda ta'lim infratuzilmasini modernizatsiya qilish zarur. Shuningdek, ta'lim jarayonining sifatini doimiy monitoring qilish va baholash mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, masofaviy va gibridd ta'limning rivojlanishi jahon ta'lim tizimining raqamli va innovatsion bosqichga o'tishini ta'minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ushbu jarayon orqali ta'lim yanada ochiq, moslashuvchan va samarali tizimga aylanib, global bilim makonining shakllanishiga xizmat qiladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Abdullayeva, N. (2018). Oliy ta'limda masofaviy ta'lim texnologiyalarini joriy etishning samaradorligi. "Pedagogika va psixologiya" ilmiy jurnal, 4(2), 37-44.
2. Jalilova, M. (2020). Masofaviy ta'limning ta'lim tizimidagi o'rni va rivojlanish istiqbollari. "Ta'lim nazariyasi va amaliyoti", 5(3), 12-19.
3. Karimov, O. (2019). Zamonaviy ta'limda gibridd o'quv jarayonining ahamiyati. "O'zbekiston pedagogik axborot markazi" materiallari, 6(1), 78-85.
4. Mamatqulov, S. (2021). Masofaviy ta'limda pedagogik yondashuvlar va innovatsiyalar. "Pedagogika va ta'lim" ilmiy jurnali, 9(4), 55-63.
5. Nurmatov, I. (2022). Gibridd ta'lim tizimlarini rivojlantirishning muhim jihatlari. "Ta'lim va rivojlanish", 11(2), 98-105.
6. Qodirov, D. (2017). Masofaviy ta'lim texnologiyalarining joriy etilishi va istiqbollari. "Ilm-fan", 3(7), 15-22.
7. Toshpulatov, B. (2019). Gibridd o'quv jarayoni: nazariy va amaliy jihatlari. "Pedagogik izlanishlar", 7(3), 27-34.